

QO`SHMA GAP TURLARI HAQIDA

O`rolova Mashhura Homid qizi
Termiz davlat pedagogika instituti
O`zbek tili va adabiyoti yo`nalishi
3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qo`shma gap va ularni tashkil etuvchi sodda gaplar, qo`shma gaplarning guruhlarga bo`linishi, bog`langan qo`shma gaplar, ergashgan qo`shma gaplar, bog`lovchisiz qo`shma gaplar, ularni bog`lovchi vositalar, tilshunos olimlarning bu sohada olib borgan ilmiy izlanishlari, turli tasniflar haqida so`z yuritiladi.

Kalit so`zlar: qo`shma gap, sodda gap, bog`langan qo`shma gap, ergashgan qo`shma gap, bog`lovchisiz qo`shma gap, teng bog`lovchilar, ergashtiruvchi bog`lovchilar, ohang, yuklamalar, nisbiy so`zlar, ko`makchili qurilmalar, *deb, bo`lsa, esa* so`zlari, shart mayli, tinish belgilar, tasnif.

Ikki va undan ortiq bo`lgan sodda gaplarning grammatik, mazmun va ohang jihatdan o`zaro bog`lanishidan hosil bo`lgan gap **qo`shma gap** sanaladi. Qo`shma gap gapning struktural jihatidan alohida bir turi bo`lib, tuzilishi va qurilish materialiga ko`ra sodda gapdan farq qiladi. Sodda gapning qurilish materialini so`z yoki so`z birikmasi bo`lsa, qo`shma gapning qurilish materialini sodda gaplardir. Sodda gap bitta predikativ asosdan, qo`shma gap esa ikki va undan ortiq predikativ asosdan tashkil topgan bo`ladi.

Qismlari qanday bog`lovchilar bilan bog`lanishi va mazmun-munosabat ifodalashiga ko`ra qo`shma gaplar 3 guruhga bo`linadi:

- Bog`langan qo`shma gaplar;
- Ergashgan qo`shma gaplar;
- Bog`lovchisiz qo`shma gaplar.

Qismlari teng bog`lovchilar, *bo`lsa, esa* so`zlari, *-u, -yu, -da* yuklamalari yordamida birikkan gaplarga **bog`langan qo`shma gaplar** deyiladi. Bunday gapni tashkil etgan sodda gaplar bir butunlikda mazmun ifodalaydi. Bog`langan qo`shma gapni tashkil etuvchi sodda gaplar o`zaro quyidagi vositalar bilan bog`lanadi:

1. Biriktiruv bog`lovchilari yordamida: *Uyga keldim va darslarimni qildim.*
2. Zidlov bog`lovchilari yordamida: *Zarifa xato gapirganini anglar, lekin tan olgisi kelmasdi.*
3. Ayiruv bog`lovchisi yordamida: *Gohi yulduzlarga cho`zaman qo`lim, gohi xayollarda aylayman sayr.*
4. Inkori bog`lovchisi: *U hozir na odamlarni, na ularning gapini pisand qilardi.*

5. Bo`lsa, esa so`zlari yordamida: *Quyosh olamni yoritadi, ilm esa odamni. Yaxshi do`st og`ir kuningda yoningda bo`ladi, yomoni bo`lsa seni shu yomon kuningda tashlab ketadi.*

Qismlari ergashtiruvchi bog`lovchilar va shunday bog`lovchi vositasida keluvchi so`zlar yordamida bog`langan qo`shma gaplarga **ergashgan qo`shma gaplar** deyiladi. Ergashgan qo`shma gaplar tarkibida nechta sodda gap ishtirok etishidan qat`i nazar doimo ikki qismdan: bosh va ergash gapdan tashkil topadi. Mazmuni izohlanayotgan gap *bosh gap*, bosh gapni izohlayotgan gap esa *ergash gap* sanaladi.

Ergash gapni bosh gapga quyidagi vositalar yordamida bog`lanadi:

1. Ergashtiruvchi bog`lovchilar: *Iroda ustozidan gap eshitdi, chunki uyga vazifani qilmagan edi.*
2. Ko`makchili qurilmalar: *Tashqari sovuq, shuning uchun ko`chaga chiqma.*
3. Yuklamalar: *Tilagim shuki, doimo tinchlik bo`lsin.*
4. Nisbiy so`zlar: *Kim ko`proq o`qisa, o`sha ko`proq natijaga erishadi.*
5. Deb so`zi: *Gul barglari uchishadi, tushmayin deb qo`lingga.*

Qismlari o`zaro bog`lovchi vositalarsiz, faqat ohang va mazmun jihatidan bog`langan qo`shma gaplarga **bog`lovchisiz qo`shma gaplar** deyiladi. Bunday qo`shma gaplarda predikativ qismlarni mazmun qurilish jihatidan bog`lashda intonatsiya (ohang) yetakchi vazifani bajaradi. Bog`lovchisiz qo`shma gaplar orasida tinish belgilar quyidagicha ishlatiladi:

1. Sodda gaplar mazmun jihatdan bir-biriga yaqin bo`lsa, yoki ketma-ket sodir bo`layotgan ish-harakatni bildirsa orasida vergul qo`yiladi. *Tong otdi, quyosh chiqdi.*

2. Sodda gaplar mazmun jihatidan qisman mustaqil bo`lsa orasida nuqtali vergul ishlatiladi. *Mayin qor osmondan yog`ilib turadi; shamolning sekin g`uvullashi eshitiladi.*

3. Ikkinchi sodda gap birinchi sodda gapning biror bo`lagini izohlab kelsa, bu sodda gaplar orasida ikki nuqta qo`yiladi. *Siz menga ayting: yuqori hosil olish uchun ishni nimadan boshlamoqchisiz?*

4. Sodda gaplarning mazmuni bir-biriga zid bo`lsa, ular orasiga tire qo`yiladi. *Ko`z qo`rqoq – qo`l botir.*

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Умурқулов.Б., Умурқулов З . Ўзбек тилининг амалий грамматикаси. Термиз.2018.
2. Ҳозирги ўзбек адабий тили., Сайфуллаева.Р., Менглиев.Б, Боқиева.Г., Қурбонова. М, Юнусова.З., Абузалова. М. Тошкент. 2010.
3. Раҳимов.С., Умурқулов.Б, Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т.: Ўқитувчи, 2003. Дарслик, ЎЗ.Р ОТВ тас